

ULUG‘VORLIK KATEGORIYASINING SHE‘RIYATDAGI IFODASI

Ma‘rufaliyeva Feruzabonu Ma‘rufjon qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada nafosat falsafasining badiiy adabiyotda estetik kategoriyalar sifatida talqin etilishi haqida fikr yuritilgan. Badiiy estetik kategoriyalar, ayniqsa, ulug‘vorlik kategoriyasi shoirlar she‘ridagi ona timsoli orqali talqin etilgan. Shu o‘rinda, O‘tkir Rahmat hamda Sirojiddin Sayyid she‘riy namunalari tahlilga tortilgan.

KALIT SO‘ZLAR: ulug‘vorlik, go‘zallik, ona timsoli, she‘riy san’atlar.

EXPRESSION OF THE CATEGORY OF GREATNESS IN POETRY

Ma‘rufaliyeva Feruzabonu Ma‘rufjon kizi

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

Uzbek Language and Literature Major

2nd Year Master’s Student

ANNOTATION: This article discusses the interpretation of the philosophy of elegance as aesthetic categories in fiction. Artistic aesthetic categories, especially the category of grandeur, are interpreted through the image of the mother in the poems of poets. In this regard, the poetic samples of O‘tkir Rahmat and Sirojiddin Sayyid are analyzed.

KEY WORDS: majesty, beauty, motherhood, poetic arts.

ВЫРАЖЕНИЕ КАТЕГОРИИ ВЕЛИЧИЯ В ПОЭЗИИ

Маруфалиева Ферузабону Маруфжон кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами

Специальность: узбекский язык и литература

Студентка 2-го курса магистратуры

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается интерпретация философии изящества как эстетической категории в художественной литературе. Художественно-эстетические категории, в частности категория

величия, интерпретируются через образ матери в стихотворениях поэтов. В этой связи анализируются поэтические образцы Уткира Рахмата и Сирожиддина Сайида.

КЛЮЧУВОЕ СЛОВА: величие, красота, материнство, поэтическое искусство.

Badiiy adabiyotda hayot haqiqatlarini go‘zallik, fojeaviylik, ulug‘vorlik, tubanlik hamda komiklik kabi nisbatlar orqali tasvirlanishida estetika asosiy o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, ushbu kategoriyalar poetikaning serjilo satrlarida badiiy anglam asosini, asarning ma‘naviy ta‘sirini aks ettiruvchi muhim tushunchalardir. Ular orqali ijodkor hayot hodisalarini, inson kechinmalari va jamiyat muammolarini chuqur va ta‘sirchan tarzda ifodalaydi. Estetik kategoriyalar adabiy asarlarning nafaqat mazmuniy, balki hissiy-estetik qiymatini ham belgilaydi.

Inson shunday mavjudotki, butun olam hodisalarini ham aqlan, ham ruhan o‘z shaxsiyatiga singdira oladi. Bu cheksizlik ortida yuksak ulug‘vorlik hissi muhim ahamiyatga ega. “Insonning ulug‘vor ruhi esa, uning o‘zini bir bosh yuksaltirgani holda, jonsiz olamni ham jonlantirish xususiyatiga ega: tabiat ulug‘lashadi, insonni hayratga soluvchi hissiyot ulashadigan estetik manbaga aylanadi. Ana shu ruhning o‘zini namoyon etish doirasini biz ulug‘vorlik deb ataymiz”¹. Ulug‘vorlik estetik xususiyat jihatidan ulkan qudrat va yuksallikka ega narsa va hodisalarning uyg‘unlashuvini anglatuvchi botiniy olamdir. Bu ko‘rinishda u badiiy asar g‘oyasini falsafiy-estetik mohiyatini ochib bera oladi.

Poetik asarlarning badiiyligini ta‘minlab beruvchi obraz va timsollar tizimi ham estetika nuqtayi nazaridan tabiat ne‘matlari asosida chuqur tahlilga tortiladi. Shuningdek, ulug‘vorlik kategoriyasi ulkan qudrat va yuksaklik bilan birga qo‘rquv, anglab bo‘linishi qiyin bo‘lgan xavotir singari tuyg‘ularni uyg‘otadi. Zarrin misralarga ulug‘vorlikning singdirilishida ezgu maqsad va anglab bo‘linmas jumboq yashiringan.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin namayondalaridan biri O‘tkir Rahmat o‘zining tabiat bilan inson olami munosabatlarini serjilo bo‘yoqlar bilan jilolagan shoirlardandir. Shoir she‘rlarida sevgi-muhabbat, onalarga ehtirom, Vatan madhiyasi va ayniqsa, tabiatning go‘zal navolari kuylanadi. Onalarni e‘zozlash tuyg‘usi hech bir shoirning qalamini chetlab o‘tmagan. Buyuk ona timsolini asarlarida aks ettirmagan ijodkor bo‘lmasa kerak olamda. Ayonki, Ona timsoli ulug‘vorlikning yorqin tasviridir. Ona timsoli — bu yuksaklikning o‘lchovi, insoniyat qalbining eng sof ko‘zgidir. Uning borlig‘ida mehrning qudrati, hayotning abadiyligi va yaratuvchanlikning jozibasi uyg‘unlashadi. Ona

¹ Abdulla Sher. Estetika (Nafosat falsafasi). – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. –B.210.

— bu ulug‘vorlikning o‘zi, hayot sahifalarini mehr bilan bezovchi samoviy qudratdir. Onani qancha ta’riflamaylik, so‘zlar to‘lqinlanib kelsa-da, kamlik qilayotgandek, go‘yo. Shoirimiz O‘tkir Rahmat onalarga bo‘lgan ehtiromini, mehrini, ulug‘vorligini quyidagi satrlarda isbotlaydi:

Ona,
Qayga shoshasiz desam,
Biror so‘z ham aytib qo‘ymaysiz.
Hali yuzdan oshasiz desam,
Tikilasiz mendan to‘ymaysiz².

“Ona” so‘zi bilan boshlanayotgan ushbu misralar zaminida onaning umri, farzandi uchun chekkan oh-u, dardlari, sochlariga tushgan qirovning, yuzdagi ajinlarning sarhisobi yotadi. Shoir farzandning onasiga bergan yupanchini **“Hali yuzdan oshasiz, desam”** satrlari bilan tasvirlaydi. Ammo onaizor farzandiga intizor boqib, butun hayotini jajji bolasiga bag‘ishlab katta qilganligini yodga oladi, qumsaydi. Hech bir ijodkor o‘z asarida ikkita bir jonni bir-biridan ayro tasvirlamaydi. Ona tasvir etilsa, unda farzand timsoli, aksincha bo‘lsa, ona timsolining go‘zal qiyofasi bilan birga keladi. Onaning ulug‘vorligi esa ayni shu misralardan boshlanadi. Ya’ni, umri kamayib borsa-da, “farzandim, bolam” demaydigan onani topolmaymiz. Farzandining ko‘zlarida jamiki hayotining bir daqiqalik suratini ko‘radi. Bu esa onaning sabr va matonat timsoli ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Tongni kutib yuzin yuvgan siz,
Tandir-o‘choq sizdan olgan o‘t.
Peshonasi shafaqning qirmiz,
Shomda charchoq bo‘ladi unut³.

Ushbu misralar obrazli ifodalar va badiiy vositalarga boy bo‘lib, onaning buyuk sabr-matonati haqida so‘z ochadi. Tongdan to kechga qadar issiq tandir-o‘choq atrofida parvona bo‘lib, oilasi uchun mehr beradigan yagona zotning tasviri go‘zal chizgilar bilan chizilgan. Shoir ijodida onalarning siymosini tandir-o‘choq, non, kulcha, rayhon, so‘ri kabi badiiy vositalar va milliy koloritga boy o‘zbekona detallarni badiiylashtirish orqali yaratadi. Shuning uchun ham O‘tkir Rahmat ijodida poetik olamdagi har bir obraz, timsollar tasviri yaqqol seziladi. **“Peshonasi shafaqning qirmiz, Shomda charchoq bo‘ladi unut”** satrlaridagi “shafaq”, ya’ni quyoshning botishi keyingi misradagi “shom”ga ishora qilmoqda. Onaning tongdan to kechga qadar qilingan mehnatlari farzandining bir kulgusi, ko‘zlaridagi baxtni ko‘rib unutilib ketadi. Bu esa faqatgina onalarda aks etadigan takrorlanmas his-tuyg‘ulardan biridir. Onalik tuyg‘usi bir necha olimlar tomonidan o‘rganilgan.

² O‘tkir Rahmat. Fasllar aylanar, tugamaydi she’r. She’riy to‘plami. -Toshkent: Sharq, 2021.-B.26.

³ O‘sha manba.

Shu o‘rinda, psixolog V.Vagnerning fikricha, “ijtimoiy-psixologik jihatdan onalik tuyg‘usi insonning boshqa hayotiy talablari, ya’ni yashash va ovqatlanish bilan bir qatorda barobar turuvchi xislatdir”⁴. Haqiqatan, onalik zamindagi butun ayollarga yarashadigan ne’matdir.

O‘tkir Rahmatning ona mavzusidagi she’rlari o‘zining zalvorli yuki, tarbiyaviy ahamiyati bilan alohida ahamiyatga ega. Shoirning ijodida onalarga bo‘lgan mehr, sevgi va e’tibor o‘zgacha yo‘sinda tasvirlanadi. Uning boshqa bir she’rida ham ayni onalar haqida so‘zlaydi.

Tandir og‘zi ochiq angraygan,
O‘choqning loy suvog‘i ko‘char.
Yer yuzida tag‘in xo‘mraygan,
O‘t-o‘lanlar dalaga ko‘chgan⁵.

Ushbu misralar badiiy tasvirga juda boy bo‘lib, unda tasviriy vositalar, ramziy ma’no, kechinmalar uyg‘un holda berilgan. Satrlar ijodkorning “Onajonim ko‘rgan qumrilar” she’ridan olingan. Qumri—bu mayin ovoqli, jufti bilan sadoqatli yashaydigan qush turidir. O‘zbek xalqi bu qushni sadoqat, muhabbat, sog‘inch kabi ramzlar bilan ta’riflaydi. Onaning ko‘ksidagi bo‘shliq, uyda yolg‘iz onaning iztirobli olami **“Tandir og‘zi ochiq angraygan”** jumalari bilan yo‘g‘rilgan. Go‘yo ona bir gap aytmoqchi, lekin aytolmay, ichidan ezilayotgandek. Dardini aytay desa, atrofda yolg‘izlikdan boshqa hech kimsa yo‘q. Misralar go‘zallik bilan birga fojeaviylikni ham yetaklab kelmoqda. Misralar ohangida sokinlik, g‘am, qayg‘u kabi tuyg‘ular kuyi yangrab turibdi. Bunday tasvir lirik qahramon kechinmasini yorqin ifodalab bergan. Bu yerda o‘choqning suvoqining ko‘chishi, yorilishi tasvirlanadi. O‘choqning buzilib borayotgani muhitdagi o‘zgarishlar, vaqtning o‘tishi, qarovning kamayganidan dalolat beradi. Tasvir poetik manzaraning abgor, huvillagan ruhini kuchaytiradi. Shoir jonlantirish orqali lirik qahramon, ya’ni ona timsolining tushkun kayfiyatini ifodalaydi. Qumri badiiy obrazi onaning ruhiy holatini va poetning ko‘nglidagi hissiy holat — bo‘shliq, sog‘inch yoki o‘tkinchi hayot haqida mulohazalarini ochib berishga yordam beradi. Umuman olganda, onaning ulug‘vorligi har bir ijodkorning har bir asarida o‘z xususiyatini yoritib boradi.

Ona siymosiga ehtirom, hurmat kabi tushunchalar adabiyotimizda barcha adiblar ijodiy konsepsiyasining asosiy qismlaridan biridir. Zamonaviy shoirlardan biri Sirojiddin Sayyid ijodining dolzarb mavzularidan biri ham ona timsolidir. “Sirojiddin Sayyid she’rlarida ona siymosi sog‘inchlardan toliqqan, farzandlarining, qolaversa, butun dunyoning g‘am-tashvishlari bilan yashaydigan

⁴ Vagner V. Qiyosiy psixologiyaning biologik asoslari. -Aql va idrok. 2005. -B.56.

⁵ O‘tkir Rahmat. Fasllar aylanar, tugamaydi she’r. She’riy to‘plami.-Toshkent: Sharq, 2021.-B.36.

jonkuyar, sodda, samimiy inson sifatida gavdalanadi”⁶. Uning “Mehmon” she’rida ayni O‘tkir Rahmat ijodiga o‘xshash, ammo ijodkor mahorati bilan ajralib turadigan ona siymosining go‘zal tasviri o‘rin egallagan.

Issiq nonlardayin tonglar bor hali,
Toledan suyunchi tutgaydir taqdir.
Shukrkim, olov bor tandiringizda,
Shukrkim, maqbara emas u tandir⁷.

Yuqoridagi she’rda shoir onaning ming tashvishlarga to‘lib yashasa-da, issiq non, tong, suyunchi kabi ramzlar orqali farzandiga bo‘lgan mehrining yuksak ekanligini ifodalab kelgan. Birinchi misra shoirning yaxshi kunlar kelishini umid qilib kutayotgan ifodalaridan ishora bo‘lsa, ikkinchi misra bu o‘xshatishlarning davomi bo‘lib, iliq davrlar yaqinlashganda taqdirning suyunchisi tayyor ekanligini dalillagan. Uchinchi misrada onalarning butun umr tandir bilan bog‘liq holda hayot kechirganligi, bu orqali o‘z farzandiga sevgi, muhabbat bor ekanligi yuksak ulug‘vorlik bilan tasvirlangan. To‘rtinchi misrada esa tandirning maqbara emasligini ta’kidlagan holda, onaning yodi, xotiri bir umrlik o‘chmas boqiylik ekanligi aytilgan. Bilamizki, maqbaralar odatda, inson o‘limidan so‘ng unga atab quriladigan majmuadir. Lekin shoir tandirni bu maqbaraga tenglamaydi. Chunki ona timsoli abadiy va umrboqiydir.

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘tkir Rahmat va Sirojiddin Sayyid ijodidagi onalar siymosi deyarli o‘xshash badiiy obrazlar va tasvirlar bilan bitilgan. Lekin ularning o‘ziga xos o‘zgacha olami onani har turli go‘zalliklar bilan ulug‘vor tarzda bezaydi. O‘tkir Rahmatda lirik qahramonning onasi kuyunchk, ammo farzandiga sezdirmas zot tarzida tasvirlangan bo‘lsa, Sirojiddin Sayyid she’rlarida ona tabiat tasvirlari bilan ulug‘lanadi. Ammo ikkala shoir ijodida ham onalar siymosi umrboqiy va abadiy ekanligiga ishora bor. Shunday ekan, onalar dunyoda yagona, mehribon zotdir. Ularni qancha satrlar bilan kuylamaylik, ularning ta’rifiga so‘zlar, siymosiga o‘xshatishlar topilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Sher. Estetika (Nafosat falsafasi). – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. –363 bet.
2. O‘tkir Rahmat. Fasllar aylanar, tugamaydi she’r. She’riy to‘plami.- Toshkent: Sharq, 2021. – 344 bet.
3. Vagner V.Qiyosiy psixologiyaning biologik asoslari. -Aql va idrok. 2005. -297 bet.
4. Nazarova N. Sirojiddin Sayyid she’riyati poetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori...diss. –T.,2025.–166 bet.

⁶Nazarova N. Sirojiddin Sayyid she’riyati poetikasi.Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori...diss. –T.,2025.–21b.

⁷ O‘sha manba.